


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 10 851,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 6,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 110,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,3 % ga yetdi.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

- 
- YAHM o'sish sur'ati
  - YAHM hajmi
  - YAHM deflyator indeksi
  - YAIMga qo'shgan hissasi





## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2

2025- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	Mlrd. so‘m		O‘sish sur’atlari, o’tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	9 174,6	10 851,5	106,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati	8 970,5	10 612,4	106,7
mahsulotlarga sof soliqlar	204,1	239,1	111,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati	8 970,5	10 612,4	106,7
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	2 189,9	2 503,7	103,7
sanoat (qurilishni qo’shgan holda)	2 378,4	2 900,7	110,2
sanoat	1 613,0	1 963,0	110,2
qurilish	765,4	937,7	110,4
xizmatlar	4 402,2	5 208,0	106,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 359,2	1 605,6	107,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	688,5	883,3	114,9
boshqa xizmat tarmoqlari	2 354,5	2 719,1	103,3



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinish turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 5 329,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,9 % ga yuqoridir.

**2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHM hajmi  
(ming so'mda)**



**2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)**





## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

4

### Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,8	97,8
mahsulotlarga sof soliqlar	2,2	2,2
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>24,4</b>	<b>23,6</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>26,5</b>	<b>27,3</b>
sanoat	18,0	18,5
qurilish	8,5	8,8
<b>xizmatlar</b>	<b>49,1</b>	<b>49,1</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,2	15,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,7	8,3
boshqa xizmat tarmoqlari	26,2	25,7



2025- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 23,6 % ni, sanoat tarmog'i 18,5 % ni, qurilish 8,8 % ni va xizmatlar sohasi 49,1 % ni tashkil qildi.

### Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,9 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,8 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,9 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 2,0 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,0 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

**2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM  
o'sishida tarmoqlarning hissasi  
(jamiga nisbatan % da)**



2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 23,6 %), sanoatda – 110,2 % (18,5 %), qurilishda – 110,4 % (8,8 %), xizmatlar sohasida – 106,4 % ni (49,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,3 % (15,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,9 % (8,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,3 % dan (25,7 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 110,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 111,2 % va qurilishda – 111,0 % qayd etildi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2024- y.

2025- y.



YAHM

110,1 %

110,7 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

107,1 %

110,3 %



Sanoat

102,8 %

110,5 %



Qurilish

108,8 %

111,0 %



Xizmatlar

116,5 %

111,2 %



2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 6 982,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-mart oylarida –6 063,0 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 65,8 % ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 67,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʼliq.

### Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2024- yil 6 063,0 67,6 %

2025- yil 6 982,3 65,8 %

